

## MUSTAQIL TA'LIM TIZIMI HAQIDA

Ne'matova Nigora Soliddin qizi  
SamDChTI tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola hozirgi kunda ta'lism tizimida katta e'tibor qaratilayotgan va shu bilan bir qatorda uni yanada takomillashtirishni talab etayotgan mavzulardan biri bo'lgan -mustaqil ta'lism tizimi haqida. Bunda asosan mustaqil ta'lism va uni qanday olib borish to'grisida tavsiyalar berilgan.*

**Annotation:** *This article is about the independent education system, which is one of the topics that is currently receiving a lot of attention in the education system and, at the same time, requires further improvement. In this, recommendations are mainly given on independent education and how to conduct it.*

**Kalit so'zlar:** *mustaqil ta'lism, maktab, qobiliyat, tamoyil.*

Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lism-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida Prezident farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Farmon loyihasida ta'limgagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan maqsadlar qamrab olingan. Mazkur loyihada dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lism maktablarida joriy qilish muhimligi ta'kidlandi. Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani bajarishda umumta'lism maktabining o'rni katta.

Bu say-harakatlarning barchasi maktabda ta'lism tizimini yangi bosqichga olib chiqish uchun olib borilmoqda. Ta'lism sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lism standarti talablariga javob bera oladigan tizim yaratish muhim omil hisoblanadi.

Shu o'rinda qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda o'rganishga e'tiborni qaratmoqchimiz. Shaxs shakllanar ekan u bilan ong, e'tiqod, bilim va xulq-atvor tajribasi shakllanadi, atrofidagilar bilan rivojlanib boradi va bu tajriba umrbod orttirilgan bilim, ko'nikma, odat va mustaqillikdan iborat. To'liq mustaqilliksiz o'quvchi o'z bilimini yaxshi rivojlantira olmaydi. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda esa mustaqil bo'lish, mustaqil fikrlay olish va mustaqil o'rgana olish qobiliyati juda muhim.

Xo'sh, mustaqil ta'lism nima? O'quvchining ta'lismni o'z zimmasiga olish qobiliyati"-A. Holik (1979). Mustaqil ta'lism – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lism shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalarini, bilimlar taqsimotiga

tayyorgarligi asosida sinfdan tashqarida bajariladi. Ta'lif tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lif olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil bilim olishda avvalo, o'quvchilarda mustaqil ishlash, erkin, ijodiy faoliyat yuritish va eng asosiysi mustaqil fikrlash ehtiyojini shakllantirish lozim. Bunda avvalo biz nimani xohlayotganimizni, aynan bizga nima kerak ekanligini bilib olishimiz kerak. Oldimizga aniq maqsad qo'yib, qilinishi kerak bo'lgan vazifalarni rejalashtirib olishimiz hamda manbalardan tog'ri foydalana olishimiz kerak. Va bu orqali biz:

- faollikka erishamiz,
- o'z mehnatimizni samaradorligini ko'ramiz,
- o'zimizga ishonchimiz oshadi,
- yanada ma'suliyatni sezamiz
- va eng muhim kelajagimiz uchun o'zimiz ishonch bilan harakat qilamiz.

Hozirgi zamonaviy texnologiyalar davrida mustaqil ishlash uchun izlanuvchilarga foydalanishlari uchun hech bir qiyinchilik yo'q, faqatgina biz to'g'ri foydalana olsak bas. Mustaqil o'rghanishda izlanuvchilardan faol bo'lish, o'rganganlaridan xulosa qilib o'zları qaror qabul qila olishlari va mustaqil fikr yuritib uni baholay olishlari talab qilinadi. Mustaqil ta'lifni tashkil etishda o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo'nalish sanaladi.

#### REFERENCES:

- 1.Ибраева Н. Формирование опыта учебно-познавательной деятельности учащихся начальных классов. 1984.
- 2.Muslimova, A.F. O'z-o'zini takomillashtirishga va ijodiy o'zini namoyon qilishga intilishlarni rivojlantirish / A.F. Muslimova // O'rta maxsus kasb ta'limi.- 2010 yil - № 4.
- 3.Benson, P. (2011). Language learning and teaching beyond the classroom: An introduction to the field. In Beyond the language classroom (pp. 7-16). Palgrave Macmillan, London.
- 4.[dissercat.com/content/formirovanie-opyta-uchebno-poznavatelnoi-deyatelnosti-uchashchikhsya-nachalnykh-klassov](http://dissercat.com/content/formirovanie-opyta-uchebno-poznavatelnoi-deyatelnosti-uchashchikhsya-nachalnykh-klassov)